



UDK:32.019.5:364.6-056.26

Karimbek MUXTOROV,

Tayanch doktorant, Guliston davlat pedagogika instituti, Guliston, O'zbekiston

E-mail: k.mukhtorov@mail.ru, <https://orcid.org/0000-0002-8748-4129>

PhD I.Raximov taqrizi asosida

NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNING SIYOSIY ONGI VA MADANIYATINI SHALLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat siyosiy hayotiga integratsiyalashuvi hamda ularning siyosiy ongi va madaniyatini shakllantirishning samarali usul va vositalari tadqiq etiladi. Tadqiqotda nogironligi bo'lgan shaxslarning siyosiy sub'ekt sifatidagi faolligini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, inkluziv ta'lim, huquqiy targ'ibot va ijtimoiy institutlarning o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu qatlam vakillarining qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirok etish darajasini yuksaltirishga xizmat qiluvchi pedagogik va psixologik yondashuvlar yoritib berilgan. Maqola yakunida nogironligi bo'lgan shaxslarning siyosiy madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan amaliy mexanizmlar va takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Nogironligi bo'lgan shaxslar, siyosiy ong, siyosiy madaniyat, inkluzivlik, siyosiy ishtirok, huquqiy savodxonlik, ijtimoiy moslashuv, demokratik jamiyat, siyosiy faollik vositalari.

МЕТОДЫ И СРЕДСТВА ФОРМИРОВАНИЯ ПОЛИТИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ И КУЛЬТУРЫ ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ

Аннотация

В данной статье исследуются вопросы интеграции лиц с инвалидностью в политическую жизнь общества, а также эффективные методы и средства формирования их политического сознания и культуры. В исследовании проанализирована роль информационно-коммуникационных технологий, инклюзивного образования, правовой пропаганды и социальных институтов в повышении активности лиц с инвалидностью как политических субъектов. Также освещены педагогические и психологические подходы, способствующие повышению уровня участия представителей данной категории в процессах принятия решений. В завершение статьи выдвинуты практические механизмы и предложения, направленные на развитие политической культуры лиц с инвалидностью.

Ключевые слова: Лица с инвалидностью, политическое сознание, политическая культура, инклюзивность, политическое участие, правовая грамотность, социальная адаптация, демократическое общество, средства политической активности.

METHODS AND MEANS OF SHAPING THE POLITICAL CONSCIOUSNESS AND CULTURE OF PERSONS WITH DISABILITIES

Annotation

This article explores the integration of persons with disabilities into the political life of society and the effective methods and means of shaping their political consciousness and culture. The research analyzes the role of information and communication technologies, inclusive education, legal advocacy, and social institutions in increasing the activity of persons with disabilities as political subjects. Furthermore, pedagogical and psychological approaches aimed at raising the level of participation of this population group in decision-making processes are highlighted. The article concludes by putting forward practical mechanisms and proposals aimed at developing the political culture of persons with disabilities.

Key words: Persons with disabilities, political consciousness, political culture, inclusivity, political participation, legal literacy, social adaptation, democratic society, tools of political activism.

Kirish. Jamiyat taraqqiyoti quyi bosqichlardan yuksak cho'qqilar sari intilib, o'tmish tajribasidan kelajak istiqboliga qarab rivojlanib borar ekan, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ayniqsa siyosiy hayotda aholining barcha qatlamlari, shu jumladan nogironligi bo'lgan shaxslarning roli hamda jamoaviy uyushqoqligi tobora chuqur ahamiyat kasb etib boradi. Bu jarayonda insonning amaliy faoliyati jadallashuvi butun insoniyat uchun xos bo'lgan obyektiv qonuniyat sanaladi. Agar jamiyatdagi ijtimoiy yangilanishlar nogironligi bo'lgan shaxslarning tub manfaatlariga, ularning o'sib borayotgan talab va ehtiyojlariga to'la mos kelsa, eng muhimi, odamlar bu islohotlarning ijobiy natijasiga oldindan mustahkam ishonch hosil qilsalar, ular ro'y berayotgan tarixiy o'zgarishlarga nisbatan befarq bo'lmaydilar. Bunday sharoitda nogironligi bor fuqarolar oddiy kuzatuvchi maqomidan chiqib, o'zlarini ulkan m'ujizakor kuch sifatida namoyon etadilar hamda o'zlaridagi

bor bilim, iste'dod va qobiliyatni jamiyat rivoji uchun safarbar qiladilar. Shuning uchun ham nogironligi bo'lgan shaxslarning siyosiy ongi va madaniyatini shakllantirishda ularning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokini rag'batlantiruvchi vositalardan foydalanish, ularni davlat boshqaruviga yaqinlashtirish strategik ahamiyatga ega. Zero, tarixiy maqsadlar qanchalik keng ko'lamli bo'lsa, inson shaxsi, uning jismoniy imkoniyatlaridan qat'i nazar, shunchalik barkamollashib boradi va uning faol mehnati hamda siyosiy faolligi evaziga davlatimiz yanada jadal rivojlanib, mustahkamlanadi. Binobarin, har bir insonning, xususan nogironligi bo'lgan shaxslarning ijodiy yondashuvi va fuqarolik tashabbusi jamiyatimiz qudrati hamda hayotiyeligini ta'minlovchi eng muhim ma'naviy-siyosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Har bir jamiyat o'z taraqqiyoti davomida o'ziga xos shaxsni shakllantirganidek, inson ham o'zi yashayotgan muhitning rivojiga befarq qaramaydi, aksincha, uning ijtimoiy-siyosiy qiyofasini o'zgartirish va takomillashtirish qobiliyatiga ega bo'ladi. Xususan, nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatga ta'siri shunchaki tasodifiy harakat emas, balki aniq maqsadga yo'naltirilgan, siyosiy ong va huquqiy bilimlarga asoslangan amaliy faoliyat orqali namoyon bo'ladi. Inson faqatgina mavjud ijtimoiy sharoitlar mahsuli bo'lib qolmasdan, balki ushbu sharoitlarni o'zgartiruvchi va yangi tarixiy jarayonlarni yaratuvchi faol subyekt sanaladi. Tarixiy taraqqiyotda nogironligi bo'lgan yoshlarning qanchalik shijoat ko'rsatishi, ularning siyosiy onglik darajasi hamda o'ziga yuklatilgan fuqarolik mas'uliyatini qay darajada his etishiga bevosita bog'liqdir[1].

Natija va muhokama. Mamlakatimiz mustaqilligini yanada mustahkamlash davrida nogironligi bo'lgan shaxslardan o'z huquq va majburiyatlariga ko'r-ko'rona emas, balki chuqur ilmiy-siyosiy asosda yondashish talab etiladi. Shu bois, bugungi kunda ushbu qatlam vakillarini g'oyaviy-siyosiy jihatdan chiniqtirish, ularning siyosiy madaniyatini yuksaltirish va jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida barkamolligiga erishish demokratik islohotlarning tub mohiyatini tashkil etadi. Jamiyatimizning hozirgi rivojlanish bosqichi nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy-siyosiy faolligi qonuniy ravishda o'sib borayotganligi bilan xarakterlanadi, zero inson omilining ijodiy salohiyatini to'liq yuzaga chiqarimasdan turib, ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni ta'minlash mumkin emas. Binobarin, nogironligi bo'lgan shaxslarning siyosiy ongi va madaniyatini shakllantirishning samarali usullarini qo'llash orqali ularning tashabbuskorligini oshirish davlatimiz ravnaqi va ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirishning eng muhim shartlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Insoniyat taraqqiyotining har bir davrida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi eng ustuvor vazifalardan biri – bu shaxsning siyosiy ijtimoiylashuvi jarayonini samarali tashkil etishdan iboratdir. Xususan, nogironligi bo'lgan shaxslarning siyosiy ongi va madaniyatini shakllantirish jarayoni ularning jamiyat hayotiga integratsiyalashuvi, mavjud siyosiy tizim bilan o'zaro hamkorlik qilishi hamda mamlakatdagi mafkuraviy va huquqiy qadriyatlar tizimini o'zlashtirishi orqali amalga oshadi. Imkoniyati cheklangan fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy harakatlarda va jamoat ishlarida faol ishtirok etishi, bir tomondan, siyosiy jarayonlar uzviyligini ta'minlasa, ikkinchi tomondan, davlat va fuqaro o'rtasidagi munosabatlar mutanosibligini mustahkamlab, jamiyatning barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi. Ushbu murakkab jarayonning mohiyatini anglash uchun ijtimoiylashuv tushunchasiga faqatgina tashqi sharoitga moslashish yoki mavjud qonun-qoidalarga ko'r-ko'rona rioya qilish deb qarash yetarli emas. G'arb tadqiqotlaridagi ayrim yondashuvlarda insonga passiv rol ajratilib, uning faoliyati faqat o'tmish merosini o'zlashtirish bilan cheklansa-da, bugungi kunda nogironligi bo'lgan shaxslarning siyosiy ijtimoiylashuvi ularning subyekt sifatidagi faolligini, o'z haq-huquqlari uchun ongli ravishda kurashishini va siyosiy madaniyatni yangi bosqichga olib chiqishini taqozo etadi. Shunga ko'ra, siyosiy ongni shakllantirish vositalari ularni shunchaki ijtimoiy muhitga ko'niktirish emas, balki jamiyatning faol va tashabbuskor a'zosi sifatida aylantirishga yo'naltirilishi lozim, zero har bir yangi avlodning ongli ishtiroki davlatning demokratik vorisyligini kafolatlovchi asosiy kuchdir.

“Ijtimoiylashuv” kategoriyasini falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilishda ijtimoiy borliqning inson shakllanishidagi hal qiluvchi o'rniga tayanish, ayniqsa nogironligi bo'lgan shaxslarning siyosiy ongi va madaniyatini

yuksaltirishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Zero, har bir shaxs shunchaki biologik mavjudot emas, balki muayyan ijtimoiy tizim va shart-sharoitlarning mahsulidir. Falsafiy mushohadalar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiylashuv jarayoni nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat, xalq va millat qadriyatlarini o'zlashtirishi hamda ushbu qadriyatlarini o'zining ijtimoiy munosabatlariga tatbiq etishi orqali kechadi. Mazkur tushunchani tahlil qilishda inson faoliyatining o'rni beqiyosdir, chunki siyosiy ijtimoiylashuv faqatgina shakllanayotgan shaxsning harakati bo'lib qolmasdan, balki atrof-muhitning unga ko'rsatayotgan tizimli ta'sirini ham o'z ichiga oladi[2]. Faollik kategoriyasi ijtimoiylashuvning asl mohiyatini anglashga imkon beradi, chunki aynan ijodiy va ijtimoiy mehnat jarayonida nogironligi bo'lgan shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqa yangi bosqichga ko'tariladi va insonning aniq-tarixiy ijtimoiylashuv shakli yuzaga keladi. Insonning ma'naviy boyligi va ijtimoiy faolligi, eng avvalo, uning foydali mehnat sohasida namoyon bo'lishi siyosiy madaniyatning shakllanishida ham belgilovchi ahamiyatga ega. Chunki aynan amaliy faoliyat va mehnat jarayonida nogironligi bo'lgan shaxslar o'zlarining bilim, tajriba va malakalarini namoyon etadilar, bu esa ularning siyosiy qarashlari real hayotiy asosga ega bo'lishini ta'minlaydi. Shunday qilib, inklyuziv jamiyat qurish yo'lidagi islohotlar nogironligi bo'lgan shaxslarni passiv obyektidan faol ijodkorga aylantirishga, ularning siyosiy ongi va madaniyatini mehnat hamda ijtimoiy faollik orqali takomillashtirishga yo'naltirilishi lozim.

Bugungi kunda ijtimoiylashuv jarayoniga inson faoliyati nuqtai nazaridan yondashish, ayniqsa nogironligi bo'lgan shaxslarning siyosiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda muhim strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiylashuv o'z mohiyatiga ko'ra ikki tomonlama dinamik jarayon bo'lib, u bir tomondan, nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy muhitga integratsiyalashuvi orqali jamiyat tajribasini o'zlashtirishini, ikkinchi tomondan esa, ularning faol harakatlari natijasida yangi ijtimoiy-siyosiy aloqalar tizimini yaratishini anglatadi. Mazkur jarayonda shaxs shunchaki tayyor tajribani qabul qiluvchi emas, balki ajdodlar qoldirgan merosni rivojlantirib, uni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'taruvchi faol ishtirokchiga aylanadi. Nogironligi bo'lgan shaxslarning siyosiy ongi va madaniyatini shakllantirishning aniq yo'nalishga ega bo'lgan tizimi – bu jamiyat manfaatlariga mos keluvchi komil shaxsni voyaga yetkazishga qaratilgan maxsus vositalar majmuidir[3]. Ushbu tizim ijtimoiy ong, ijtimoiy munosabatlar va mavjud manfaatlar bilan uyg'unlikda ishlab chiqiladi hamda ijtimoiy institutlar tomonidan insonlarning turmush tarzi, bilim darajasi va ruhiy holatini hisobga olgan holda amaliyotga joriy etiladi. Siyosiy ong ijtimoiy ongning alohida shakli sifatida voqelikni o'ziga xos usullar bilan aks ettiradi va turli ijtimoiy guruhlarning, jumladan, imkoniyati cheklangan shaxslarning davlat hokimiyatiga, siyosiy institutlarga hamda jamiyat hayotidagi o'zgarishlarga bo'lgan munosabatlarining nazariy ifodasi bo'lib xizmat qiladi. Binobarin, nogironligi bo'lgan shaxslarning siyosiy madaniyatini yuksaltirish orqali ularning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini ta'minlash, nafaqat ularning shaxsiy kamolotiga, balki butun mamlakatning demokratik barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa. Nogironligi bo'lgan shaxslarning siyosiy ongi va madaniyatini shakllantirish jarayoni tizimli yondashuvni talab etuvchi murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisa bo'lib, u nafaqat huquqiy bilimlarni targ'ib qilishni, balki jamiyatdagi barcha to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan kompleks vositalarni qo'llashni taqozo etadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, samarali siyosiy madaniyatni shakllantirish uchun jismoniy infratuzilmaning qulayligi va axborot resurslarining

inkluzivligi (brayl alifbosi, surdotarjima, qulay raqamli platformalar) fundamental zamin hisoblanadi. Shuningdek, maxsus o'quv metodikalari va motivatsion treninglar orqali ushbu qatlam vakillarining o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish, ularni ijtimoiy himoya oluvchi passiv ob'ektdan jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etuvchi siyosiy sub'ektga aylantirishning eng muhim shartidir. Siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslarning manfaatlarini himoya qilish bilan birga, ularni

bevosita qaror qabul qilish jarayonlariga va rahbarlik lavozimlariga jalb etish eng samarali amaliy vosita bo'lib xizmat qiladi. Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, nogironligi bo'lgan shaxslarning siyosiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan tizimli mexanizmlar jamiyatda ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptirishga, inson huquqlari ustuvorligini ta'minlashga va mamlakatning umumiy demokratik taraqqiyot darajasini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR

1. Тоғаев Қ., Мажидов Ш. Ногиронлиги бўлган шахслар ва ижтимоий ҳимояга мухтож хотин-қизларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш бўйича қўлланма. –Т: 2025. 112.-б.
2. Исмоилов Б. Ўзбекистонда ногиронлиги бўлган шахслар ҳуқуқларини таъминлашнинг конституциявий-ҳуқуқий асослари таҳлил. Innovative academy jurnali. 2025. –Б. 111.
3. Туленова Г.Ж. Ёшлар ижтимоий фаоллигини оширишда маънавий омилнинг роли (Ижтимоий-фалсафий таҳлил). Ф.ф.д.илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. –Т: 2006. –Б 117